

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi qoshidagi Urdushunoslik markazi tashabbusi bilan Peshovar Universiteti Urdu sho‘basi bilan hamkorlikda tashkil qilingan "Urdu tili va adabiyoti - muammolar, imkoniyatlar va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi vebinar haqida
HISOBOT

Joriy yilning 10-iyun sanasida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va O‘zbekiston Respublikasidagi Pokiston Islom Respublikasi Elchixonasi o‘rtasidagi 2025-yil sentabridan 2026-yil dekabriga qadar hamkorlik haqidagi yo‘l xaritasida ko‘rsatilgan vazifalar doirasida Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi qoshidagi Urdushunoslik markazi tashabbusi bilan Peshovar Universiteti Urdu sho‘basi bilan hamkorlikda "Urdu tili va adabiyoti - muammolar, imkoniyatlar va istiqboldagi vazifalar" mavzusida vebinar tashkil qilindi.

Vebinar o‘z ishini Peshovar Universiteti Urdu sho‘basi mudiri Dr. Salman Alining kirish so‘zi bilan boshladi. U o‘z kirish so‘zida urdu tili va adabiyoti Janubiy Osiyo xalqlarining boy madaniy, tarixiy va ma‘naviy merosini o‘zida mujassam etgan muhim ilmiy va adabiy maktablardan biri bo‘lib, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda xalqlararo madaniy aloqalarning kengayishi ushbu til va adabiyotning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, qator dolzarb masalalarni ham kun tartibiga olib chiqayotganiga urg‘u berdi.



Vebinarga Urdu sho‘basi professori dr. Sohail Ahmad koordinatorlik qildi.


Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori M.Abdurahmonova “**Z.M.Bobur lirik she’riyatining ba’zi jihatlari**” mavzusida maqola bilan chiqib, uning g‘azallarida muhabbat, visol va hijron, vatan sog‘inchi hamda insoniy kechinmalar chuqur badiiy ifoda etilgani, Bobur she’rlarida tabiat tasviri va inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlik mahorat bilan aks etgani, shoir turkiy adabiy tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanib, sodda va ravon uslub yaratganiga to‘xtaldi:



Dots. Sharahmetova M. o‘zining "**Boburnoma**"ning urducha tarjimasida **Alisher Navoiy adabiy portreti**" mavzusidagi maqolasida Boburnoma”ning urducha tarjimasida Alisher Navoiy buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida tasvirlanishi, Bobur Navoiyning turkiy adabiyot rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida e’tirof etaturib, Navoiyning ilm-fan, adabiyot va madaniyat homiysi sifatidagi fazilatlarini aytib, uning Navoiyga bo‘lgan hurmat va ehtiromini bayon qildi:



Dots. Umarova M. **“O‘zbek tilidan urdu tiliga qilingan tarjimalarda milliylikning ifodalanishi”** maqolasida o‘zbek tilidan urdu tiliga qilingan tarjimalarda milliylik, avvalo, xalqning urf-odatlari, an‘analari va turmush tarzini aks ettirish orqali namoyon bo‘lishi, tarjimonlar milliy koloritni saqlash maqsadida ayrim madaniy tushunchalar va realiyalarni asl shaklda berishga harakat qilishi lozimligi, milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va mehmondo‘stlik kabi jihatlar tarjimalarda muhim o‘rin egallashiga urg‘u berdi:



Tadqiqotchi **Shohjahon Sa’dullayev** "Hind-oriy va turkiy tillarning ilk lingvokontakti masalasi" mavzusidagi maqolasi Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda yuz bergan tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog‘liqligi, ushbu til aloqalari natijasida ikki til oilasi o‘rtasida ayrim leksik birliklar va madaniy terminlar almashinuvi sodir bo‘lgani, savdo, migratsiya va siyosiy munosabatlar lingvokontakt jarayonining asosiy omillariga to‘xtaldi:



Vebinarda Peshovar Universiteti Urdu sho‘basi **associate professori Dr. Badshah Munir Bukhari** “ Urdu tilini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish xususiyatlari” mavzusidagi maqolasida sun’iy intellekt urdu tilini o‘qitishda ta’lim jarayonini yanada samarali va interaktiv tashkil etish imkonini berishini aytib, AI asosidagi dasturlar talabalarning til darajasini tahlil qilib, ularga mos individual mashqlar va topshiriqlarni tavsiya etdi. Uning fikricha, nutqni tanish texnologiyalari yordamida talaffuz xatolarini aniqlash va tuzatish mumkin.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq tillari va adabiyoti instituti direktori dots. (PhD) **Nilufar Xodjayeva** vebinarga yakun yasadi.



Dots. Nilufar Xodjayeva o‘z nutqida ikki universitet o‘rtasidagi ilmiy-adabiy aloqalar xususida gapirib, imzolangan MoU da ko‘zlangan vazifalar ijrosi va istiqboldagi vazifalarga batafsil to‘xtaldi. Shuningdek, bugungi vebinarining ahamiyatiga urg‘u berib, mazkur vebinar o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar o‘rtasida tajriba almashish hamda ilmiy hamkorlikni yana rivojlantirishiga va uning natijalari kelgusida yangi loyihalarni amalga oshirish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Urdushunoslik markazi rahbari

M.Abdurahmonova